

## ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALAR VA O'SMIRLARNING TA'LIM OLISHLARI UCHUN ZARURIY PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK SHAROITLARNI YARATISH

*Tilakova Mavjuda Ashurovna*

*Jizzax viloyat pedagogik mahorat marazi dotsenti*

### **Annotatsiya**

Inklyuziv ta'lim tizimiga umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'limi muassasalari kiradi. Uning maqsadi alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini inobatga olgan holda bolalarni o'qitish va o'qitishda to'siqsiz muhit yaratishdir

**Kalit so'zlar:** Inklyuziv ta'lim, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bola, shaxsning psixologik xatti-harakati, qiziqishi, qobiliyati.

### **Annotation**

The inclusion inclusive education system includes institutions of general secondary, secondary special, professional education. Its purpose is to create an unobstructed environment in the education and training of children, taking into account individual educational needs and the diversity of individual opportunities

**Keyword:** Inclusive Education, a child with special educational needs, psychological behavior, interest, ability of the individual.

### **Аннотация**

К системе инклюзивного образования относятся общеобразовательные учреждения среднего, среднего специального, профессионального образования. Его цель-создать безбарьерную среду для обучения и воспитания детей с учетом индивидуальных образовательных потребностей и разнообразия индивидуальных возможностей.

**Ключевое слово:** Инклюзивное образование, ребенок с особыми образовательными потребностями, психологическим поведением, интересами, способностями личности.

Inklyuziv ta'lim tizimiga umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'limi muassasalari kiradi. Uning maqsadi alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini inobatga olgan holda bolalarni o'qitish va o'qitishda to'siqsiz muhit yaratishdir. Ushbu chora-tadbirlar majmuasi ta'lim muassasalarining texnik jihozlanishini hamda o'qituvchilar va boshqa talabalar uchun ularning nogironligi bo'lgan shaxslar bilan o'zaro munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus o'quv kurslarini ishlab chiqishni nazarda tutadi. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2021- yil 12-oktabrdagi «Alohida ta'lim ehtiyojlari

bo‘lgan bolalarga ta‘lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida»gi 638 -son qaror qabul qilindi. Mazkur hujjat 13.10.2020 yildagi «Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4860-son qarorga muvofiq ishlab chiqilgan. Jamiyatda yashayotgan har bir shaxsda mehr olish, doim e‘tiborda bo‘lish, atrof muhitdagi turli ta’sirlardan himoyalaniish istagi, shaxsiylik faoliyatini ruhlantirish va mehr muhabat kabi ehtiyojlarga doimo asosiy ehtiyojlar qatoriga kirgan. Bu kabi xislatlar turli nogironligi bo‘lgan insonlar ham bundan xissiyotlarga ehtiyoj sezadilar. Bu kabi xususiyatlardan tashqari ularning o‘ziga xos xususiyatlari va alohida shaxsiy ehtiyojlari ham mavjud bo‘ladi. Shaxsning psixologik xatti-harakati, qiziqishi, qobiliyati va boshqa bir qator jihatlari ham anamaliyalari o‘xshash bo‘lgan jihatlarda ham ularning bu kabi xususiyatlari farq qilishiga ko‘p bora guvoh bo‘lganmiz.

Mamlakatimizda inklyuziv ta‘limni ta‘lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda fan, ta‘lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta‘minlash asosida tashkil etishning huquqiy – me‘yorlari ishlab chiqilgan. “Alohida ta‘lim ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta‘limni tashkil etish maqsadida ta‘lim muassasalari moddiy texnika bazasini mustahkamlash, o‘quv dasturlarini adaptivlashtirish, sog‘lomlashtiruvchi sifatli ta‘lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish hamda bu jarayonga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash” kabi muhim vazifalar belgilandi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrda PF-5270-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 29-aprelda PF5712-son “Xalq ta‘limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”, 2020- yil 6- noyabrda PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022- yil 28-yanvarda PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan YAngi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, farmonlari, 2020- yil 13- oktyabrda PQ–4860-son “Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021- yil 12- oktyabrda 638-son “Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim berishga oid normativ huquqiy xujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori va boshqa xujjatlarda kadrlar masalasi, ta‘lim mazmunini modernizatsiyalash, jarayonni metodik va didaktik ta‘minlash vazifalari belgilab berilgan.

Inklyuziv ta‘limni oiladan maktabgacha ta‘lim muassasalarida, umumta‘lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va oliy o‘quv muassasalarida joriy etish natijasida imkoniyati cheklangan insonlarga nisbatan umumiy munosabat o‘zgarayotgani

ma'lum bo'ldi. Bu esa ularning hayotda muvaffaqiyat qozonishi uchun omil bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarga umumta'lim jarayonidagi barcha tadbirlarda faol va muntazam ishtirok etish imkonini beradi. Buning natijasida stereotiplar shakllanishining oldi olinib, ko'rsatiladigan individual yordam imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatdan ajratib qo'ymaydi. Ular olgan ko'nikmalarini umumlashtirish imkoniga ega bo'lishadi. Imkoniyati cheklangan insonlar uchun ishlab chiqilgan va jamiyatga reja asosida joriy etilayotgan inklyuziv ta'lim strategiyasi o'qishning uzluksiz va muttasilligini ta'minlaydi. Oila – bolalar bog'chasi – maktab – kasb-hunar kolleji – ish bilan ta'minlash – ushbu tizim kelajakda ota-onalarga imkoniyati cheklangan bolalarini umumta'lim muassasalari va oliy o'quv yurtlariga bemalol, xavfsiramasdan olib kelishlari uchun zamin yaratadi.

Alohida ehtyojli bolalar barcha bolalar kabi, teng huquqli bo'lib ular bilan bir jamoada yashash va birgalikda ta'lim olish huquqiga egadirlar. Alohida ta'lim olish esa bu huquqni cheklaydi va o'z-o'zini namoyon qilish imkoniyatlaridan mahrum qiladi. Alohida ehtyojli bolalar ularning cheklangan imkoniyatlari tufayli alohida o'qitilishi ularning ijtimoiylashuvini chegaralab, mustaqil hayotga tayyor bo'lishini qiyinlashtirishiga olib keladi. Birlashtirilgan, inklyuziv ta'lim – inson huquqlarining dolzarb muammosi bo'lib kelgan. Hali juda ko'p bolalar otaonalarining bola uchun qulay sharoiti mavjud, deb hisoblagan maxsus internatlarda o'qitishi tarafdori bo'lib kelmoqda. Lekin voyaga yetgan katta yoshli nogironlar, o'zlarini inklyuziv ta'lim shartlarini boshidan kechirgan deb ta'riflab, alohida ta'limning bekor qilinishini talab qilmoqdalar. Chunki “qulay, imtiyozli sharoitda, hamma narsa tayyor bo'lgan sharoitdan chiqgach, tashqariga moslashish, o'z o'rnini topish mashaqqati uzoq yillar davom etadi.

Inklyuziv ta'lim tizimini samarali tashkil etish, barcha imkoniyati cheklangan o'quvchilarni umumta'lim tizimiga qamrab olish hamda ijobiy natijalarga erishish uchun mavjud muammolari ularni bartaraf etish yo'llarini izlab topish hamda amalga oshirish lozim. Buyuk Britaniya davlati “Bolalarni qutqaring” tashkiloti, uning boshqa mamlakatlardagi tashkilotlari inklyuziv ta'limdagi asosiy to'siqlarni xalq ta'limi tizimi va maktablarga qo'yadi. Bizning fuqarolik jamiyatiga qadam qo'yayotgan davlatimizda bunday to'siqlarni o'z-o'zini boshqarishning milliy modeli bo'lgan mahallarda hal etish mumkin. E'tiborsizlik, yashirish, mablag' masalasi, sharoitga moslashmaslik, kambag'allik, sinfda o'quvchilar sonining ko'pligi, kamsitish, qaramlik, kutilmagan holatlar kabi to'siqlarni mahallalarda bemalol bartaraf etsa bo'ladi, yoki bu muammolarni hal etishni quyidagi jadval asosida shunday tasdiqlash mumkin.

Har bir bolaning ta'lim olishdagi teng huquqliligini ta'minlash har qanday diskriminatsiya va kamsitishlarning oldini olishga xizmat qiladigan inklyuziv ta'lim

tushunchasi ham qonuniy kuchga kiritilishi uzoq kutilgan yangiliklardan biri hisoblanadi. Shular nazarda tutilgan holda hozirgi kunda birlashtirilgan –inklyuziv davlat siyosati darajasida ko‘rilmogda.

Bu ta‘limga o‘tish jarayoni uchun quyidagilar amalga oshirilishi talab etiladi:

- Ta‘limda alohida ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga munosabatlarning o‘zgarishi;
- Oilaning bunga tayyor bo‘lishi;
- maxsus maktab ta‘limida bolalarning o‘qitilish vaqti qisqartirilib bolalar boshlang‘ich bosqichda reabilitatsiya bo‘lishini ta‘minlovchi shartsharoitlar yaratilishi;
- maxsus maktab ta‘limi sohasi malakali mutaxassislar bilan ta‘minlanishi, korreksiya va reabilitatsiya jarayonini sifatli va tezkor amalga oshirilishi uchun zarur jihozlar bilan ta‘minlanishi;
- maxsus maktab ta‘limi va oila hamkorligiga erishish, oilaning reabilitatsiya jarayonida faol bo‘lishiga erishish (qo‘shimcha uyda shug‘ullanish, repititor, maxsus psixolog maslahati orqali).

Umumta‘lim maktablarni birgalikdagi–inklyuziv ta‘limga tayyorlash:

- Maxsus infrastruktura yaratish;
- O‘zbekistonda maxsus ta‘lim sohasida quyidagi tadbirlar amalga oshirilmoqda:
  - yordamga muhtoj bolalar uchun moslashuvchan va ko‘p qirrali ta‘lim tizimini yaratish;
  - mahalliy va mintaqaviy miqyosda maxsus ta‘limning tobora oshib borayotgan ahamiyati asosida ta‘lim boshqaruvini markazlashtirish; yordamga muhtoj bolalarga yoshlikdan toshhis qo‘yish va kasalpiklarni aniqlash uchun sharoit yaratish;
  - milliy ta‘lim standartlari asosida yordamga muhtoj bolalarga mo‘ljallangan o‘quv qo‘llanmalar sifatini yaxshilash; ta‘lim muassasalarining moddiy-texnika bozasini mustahkamlash;
  - nogiron bolalar bilan ishlashga ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini kengaytirish;
  - ko‘zi ojiz bolalar uchun mo‘ljallangan turli kitoblar, metodologik adabiyotlarni chop etish;
  - nogiron bolalarni maxsus aravachalar, [eshitish moslamalari](#), ko‘zoynaklar, sport anjomlari, ish asbob-uskunalari, kanselyariya mollari, maxsus mebellar va tibbiy uskunalalar bilan ta‘minlash;
  - maxsus talim sohasida kadrlar tayyorlash.

Hozirgi kunda qator ekologiq ijtimoiy va boshqa sabablarga ko‘ra, shuningdeq homiladorlikdan keyingi patologik asoratlarni natijasida bola rivojlanishi va birinchi navbatda, uning ongi, atrof-muhit tahlili holda faoliyatini nazorat qilish va boshqarish funksiyalarining rivojlanish masalasini o‘rganish muhimdir.

Hozirgi vaqtda inklyuziv ta'lim subyektlarini psixologik-pedagogik qo'llabquvvatlash mazmuni o'rganishning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Bu jarayon alohida ta'lim ehtiyojli bolaning ijtimoiy muhitga samarali integratsiyalashuvini ta'minlashga, uning o'zini o'zi belgilashiga, o'zini o'zi anglashiga, o'zini o'zi tasdiqlashiga hissa qo'shishga qaratilgan barcha ta'lim subyektlarining faoliyati bilan o'zaro bog'liqdir. Psixologik va pedagogik yordam muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashish va har qanday ta'lim tashkiloti talabalarining shaxsiy hayoti va kasbiy o'zini o'zi belgilashi bilan bog'liq turli vaziyatlarda maqbul yechimlarni tanlashning zaruriy shartidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori.
3. Fayziyeva U., Nazarova D., Kolbayeva X. J. Eshitishida muammolari bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limi. O'XTV Avloniy nomidagi XTRXMOMI, BMT Yunisef. XBJ.T.,2005
4. X.N.Muzaffarova, D.Tangirova "Inklyuzv ta'lim" fani bo'yicha o'quv metodik qo'llanma. Jizzax davlat pedagogika instituti. 2011
5. Педагогика и психология инклюзивного образования: учебное пособие . - Казань, 2013.